

**OG'ZAKI NUTQ IFODALASHGA XIZMAT QILUVCHI LISONIY
(FONETIK, LEKSIK, GRAMMATIK) VOSITALARNING
XUSUSIYATLARI**

Madraximova Gulnoza Adxamovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti,

Andijon mashinasozlik instituti, Andijon, O'zbekiston

Tel: +998 99 532 10 51 guliadxamova88@mail.com

Annotasiya:

Ushbu maqolada nutqning g'oyat murakkab va psixologig jarayon ekanligi, og'zaki va yozma nutqning bir biridan farqlanishi hamda foydalinilishi tahlil qilingan. Bundan tashqari So'zlashuv nutqda intonatsiya(ohang)ning kommunikativ turlar xam ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yozma va ogzaki nutq, intonatsiya, unli undosh talaffuz, nutqiy intonatsiya

Аннотация:

В данной статье анализируется тот факт, что речь является очень сложным и психологическим процессом, отличие устной речи от письменной, а также ее полезность. Кроме того, рассматриваются также коммуникативные типы интонации (тона) в разговорной речи.

Ключевые слова: Письменная и устная речь, интонация, произношение гласных и согласных, речевая интонация.

Abstract:

This article analyzes the fact that speech is a very complex and psychological process, the difference between oral speech and written speech, as well as its usefulness. In addition, communicative types of intonation (tone) in colloquial speech are also considered.

Keywords: Written and spoken speech, intonation, vowel consonant pronunciation, speech intonation.

Nutq g‘oyat murakkab ijtimoiy va psixologik hodisadir. Biz bu nutqdan fikrni anglatish, his-tuyg‘ularni ifodalash, ma’lum maqsad va muddaoni tushuntirish uchun, shuningdek, suhbatdoshimizda ham his-tuyg‘u uyg‘otish, o‘z hohish-irodamizni bildirish va boshqa kishilar irodasiga ta’sir etish uchun foydalanamiz. Og‘zaki nutq bir kishi (so‘zlovchi) tomonidan amalga oshiriladi. Nutq til birliklari vositasida muloqot, ya’ni fikr almashish jarayonidir, boshkacha aytganda, nutq tilning bevosita voqe bo‘lishi, ya’ni, ro‘yobga chiqishidir. Til og‘zaki nutq shaklida amal kiladi. U og‘zaki nutq orqali o‘zgaradi va rivojlanadi. Nutq tilning bevosita faoliyatidir. Ayni vaqtda nutq tilga teng emas. Til aloqa-aratashuv, ya’ni muloqot vositasidir. Bir tilda gaplashadigan kishilarning nutqi bir-biridan farq qiladi ham. Ayrim kishilar nutqida hamisha qandaydir yangi fonetik, leksik, ba’zan grammatik xususiyatlardan foydalanadi, ba’zi birlari asta-sekin shu tilga kirib boradi, boshqalari esa ma’lum bir taraqqiyotining umumiyo yo‘liga zid bo‘lganligi uchun o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketadi. Tilning shu tilda gapiruvchi kishilar nutqida uzoq vaqt ishlatilmagan elementlari bora-bora arxaizmga aylanib qoladi.

Tilni faqat og‘zaki va yozma nutq orqali o‘rganish mumkin, nutqda ma’lum til taraqqiyotning ob’ektiv qonunlari topilishi va aniqlanishi mumkin. Bu hol til tovush xususiyatlarini o‘rganishga, jumladan, til tovush sostavi, so‘zning tovush strukturasi, tovushlarining birikishi, urg‘u, intonatsiyani o‘rganishga tamomila taalluqlidir. Tilning tovush xususiyatlari nutqda sodir bo‘ladi. SHuning uchun ham xususiyatlar nutq orqali va nutqda o‘rganilishi lozim. Demak, nutq qoidalarini qanchalik puxta o‘zlashtirgan bo‘lsak, til konuniyatlarini ham shunchalik chuqr bilib boramiz va bu ta’riflarni o‘z amaliy faoliyatimizda qo‘llay boramiz.

Nutq insonlar o‘rtasidagi asosiy muloqot vositasidir va nutqsiz insonlar katta hajmdagi axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatiga ega bo‘lmash edi. Mazkur axborot, xusan, boshqa hissiyot organlari yordamida idrok qilib bo‘lmaydigan ma’nolarni o‘zida kasb etadi (mavhum tushunchalar, bevosita idrok qilib bo‘lmaydigan hodisalar, qonunlar, qoidalar va hokazo). YOzma nutqsiz odam oldingi avlodlar qanday yashashgani, fikrlashgani hamda nima bilan mashg‘ul bo‘lganliklari haqida bilish imkoniyatiga ega bo‘lmashdi, boshqalarga o‘z fikr va hissiyotlarini etkaza olmagan bo‘lar edi. Muloqot vositasi bo‘lgan nutq tufayli insonning individual ongi shaxsiy tajriba bilan chegaralanmay, boshqa odamlar tajribasi hisobiga boyib boradi va mazkur jarayon bilishning nutqiy bo‘limgan insonning boshqa hissiyot organlari - diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur orqali olinadigan ma’lumotlarga qaraganda bir necha barobar ko‘proq amalga oshiriladi.



Nutq orqali bir odamning psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlarni ham boyitadi va ularning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zining hayotiy ahamiyatiga ko‘ra nutq polifunksional xarakterga ega. U faqat muloqot vositasi bo‘lmay, balki tafakkur vositasi, ong, xotira, axborot (yozma matnlar) tashuvchisi, boshqa odamlar xulqini boshqarish va o‘z xulqini to‘g‘irlash vositasi hamdir. Funksiyalar ko‘pligiga muvofiq nutq polimorf faoliyatdir, ya’ni turli funksional vazifalarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi: tashqi, ichki, monologik, dialogik, yozma, og‘zaki va hokazo nutq. Nutqning barcha mazkur shakllari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa ham, ularning hayotiy vazifalari bir xil emas. Masalan, tashqi nutq, asosan, muloqot vositasi vazifasini bajarsa, ichki nutq tafakkur vositasi vazifasini bajaradi. Yozma nutq, ko‘pincha, axborotni saqlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Monolog bir taraflama jarayonga xizmat qilsa, dialog ikki taraflama axborot almashinuviga xizmat qiladi.

Til va nutq o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in bu so‘zdir. So‘z ham til birliklarida, ham nutq birliklarida ifodalanadi.

Shu bilan birga nutq undan foydalanayotgan inson shaxsini ifodalovchi ma’lum bir mazmunni o‘zida kasb etadi. Mazmun ma’nodan farqli ravishda, aynan, mana shu odamda mazkur so‘z yuzaga keltiradigan shaxsiy fikrlar, hissiyotlar, tasavvurlar, assotsiatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Bir xil so‘zlarning til ma’nosini bir xil bo‘lsa ham turli odamlarda farqli mazmunga ega bo‘lishi mumkin.

Odatda nutq asosan uchta funksiyani bajaradi:

1. Signifikativ (ifodalovchi),
2. Umumlashtiruvchi,
3. Kommunikativ (bilim, munosabat, hissiyotlarni uzatish).

Signifikativ funksiya inson nutqini hayvonlar kommunikatsiyasidan farqlaydi. Insonda so‘z predmet yoki hodisa haqidagi tasavvur bilan bog‘liq. Muloqot jarayonidagi o‘zaro bir-birini tushunish so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan predmet va hodisalarini ifodalashning bir xilligiga asoslanadi chunki tilning eng muhim funksiyalaridan biri - ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o‘zlashtirish bo‘lib, har bir kishining hatti-harakati va faoliyati insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Kichkina bola dunyoni mustaqil suratda bilib olmaydi. U bilimlarning bir qismini ota-onalaridan so‘rab, savollar berib o‘zlashtiradi. Boshqa bir qismini o‘zaro munosabatlarda, asosan, til yordamida o‘zlashtiradi. Yana bir qism bilimlarni muktabda, pedagoglardan o‘rganadi (til yordamida). Bilimlarning anchagina qismini kitoblardan o‘qib o‘rganadi (yana til yordamida). Bu tilning kommunikatsiya funksiyasidir.



Umumlashtiruvchi funksiya so‘z faqat bitta alohida olingan predmetni emas, balki bir guruh o‘xhash predmetlarni va ularning umumlashtiruvchi belgisini ifodalashi bilan bog‘liq. Ma’lumki kishining hatti-harakatlari va faoliyati, ko‘pincha, ijtimoiy qimmatga ega bo‘lmangan o‘zga kishilarning bevosita tajribalari bilan ham belgilanadi. Agar biror kishi boshqasiga magazin yoki oshxonaning ishlamayotganligi haqida xabar bersa u o‘z hatti-harakatini o‘zgartiradi. Boshqa magazin yoki oshxonaga borishi mumkin. Bu erda til yordamida berilayotgan informatsiya kishining hatti-harakatini boshqarmoqda. Bu tilning interaksiya yoki kishining hatti-harakatini boshqarish vositasi sifatidagi funksiyasidir.

Nutqning uchinchi funksiyasi kommunikativ funksiya, ya’ni axborot uzatish funksiyasidir. U kishining o‘z tajribasi, va ijtimoiy tajriba asosida o‘z hatti-harakatlarini boshqarishi bilan bog‘liq. Odam biror muammoli vaziyatlarda o‘z tajribasigagina asoslanib qolmay, boshqa kishilarning tajribalariga, umuman jamiyat tajribasidan ham foydalanadi. Ana shunday vazifalarni o‘z oldiga qo‘yish va hal qilish jarayoni intellektual akt (harakat) deb ataladi. Intellektual harakat uch bosqichdan iborat bo‘ladi: faoliyatni rejalashtirish, uni amalga oshirish, maqsad bilan solishtirib ko‘rish. Odamning individual harakatlari, asosan, mana shunday intellektual aktlardan tashqil topgan bo‘ladi. bu erda avvalambor odamlarning rejalashtira olish qobiliyati yuzaga chiqmoqda. Bunday rejalashtirish va umuman fikriy masalalarini hal qilishning asosiy quroli TILDIR. Bu erda til intellektual faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatida namoyon bo‘ladi.

Agar nutqning birinchi ikkita funksiyasini ichki psixik faoliyat sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘lsa, kommunikativ funksiya boshqa odamlar bilan muloqotga yo‘naltirilgan tashqi nutqiy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutqning kommunikativ funksiyasida quyidagi uch aspektni ajratish mumkin:

- A) Informativ (axborot),
- B) ifodalash,
- V) xohish bildirish.

Kommunikativ funksianing informativ (axborot) jihatni bilimlarni uzatishda namoyon bo‘ladi va belgilash hamda umumlashtirish funksiyalari bilan yaqin bog‘liqdir.

Nutqning ifodalash jihatni so‘zlovchining axborot predmetiga bo‘lgan hissiyotlari va munosabatini ifodalashga yordam beradi.

Xohish bildirish funksiyasi esa tinglovchini so‘zlovchi istaklariga bo‘ysundirishga qaratilgan.



Keyingi yillarda kishilar orasidagi muomala jarayonini o‘rganish va boshqarishga qiziqish kuchaymoqda. Ko‘pchilik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar kishi o‘zining xulq atvori va boshqalar bilan muomalasi ostida yotgan qonuniyatlar va tamoyillarni bilsa, u hayotga munosabatini, boshqalarga bo‘lgan munosabatini keskin o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. «Muomala» psixologik kategoriya sifatida juda ko‘p o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, uni o‘rganish davom etmoqda. Bu muomalaning muhimligi va ko‘p qirraliligi bilan tushuntiriladi.

Og‘zaki nutqning ko‘zga tashlanadigan tomonlaridan biri bu so‘zlovchining tashrif qog‘ozi bo‘lgan talaffuzidir. So‘zlashuv nutqi talaffuzni ma’lum qoidalar asosida ongli boshqarishni talab etadi. So‘zlashuv nutqida so‘zlovchidan quyidagi masalalarga alohida e’tibor talab etiladi:

1. Unlilar talaffuzi. Ingliz tilida unlilar urg‘uli bo‘g‘inda aniq talaffuz qilinadi, urg‘usiz bo‘g‘inida esa bir oz qisqaradi, ayniqsa jarangsiz undoshlar orasida kelgan urg‘usiz [i], [ə] unli tovushlari noaniq talaffuz etiladi. Masalan, **carpet,teacher**.
2. Undoshlar talaffuzi. Ingliz tilida so‘z boshida va so‘z o‘rtasida kelgan undoshlar aniq talaffuz qilinadi, so‘z oxirida ham u kuchsizlanmaydi.

Umuman nutqning aniq va ravon bo‘lishiga erishishda tovushlarning to‘g‘ri talaffuziga, so‘z urg‘usining o‘z o‘rnida qo‘llashga e’tibor berish lozim. Nutq tovushlari talaffuzining aniqligi bilan birga diksiyaning ravonligi nutq uchun o‘ta muhim bo‘lib, bu hol tinglovchining tushunishini osonlashtiradi.

3. Intonatsiya. Nutqning intonatsion (ohang) xususiyatlari voqelik yoki kontekst orqali aniqlanadi va gapning leksik sostavi hamda grammatik qurilishi bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Intonatsiya aloqa aralashuvning muayyan, konkret sharoitlarida gapda aytilgan fikrning tugallanganligini bildaradi. U kishilarning aloqa aralashuv jarayonidagi emotsional iroda munosabatlarini ham ifoda etadi. Intonatsiya gaplarning kommunifikativ tiplarini va turlarini farqlashga yordam beradi. Gapning kommunifikativ ma’nosи juda umumiylar tarzda bo‘lib, uning yordamida gap asosan, to‘rt xil kommunifikativ toifaga ajratiladi: **darak, buyruk, so‘rok va undov**. Odatta gap va intonatsiyaning kommunifikativ tiplari ana shunga qarab farqlanadi.

Ularning bu turlari fonetik tajribalar orqali asta-sekin bilib olinadi va u birorta hikoya, so‘roq, tilak yoki undovning bir xil turi sifatida idrok qilinadi. Masalan, hikoyada biz o‘z hikoyamiz, xabarimiz, javobimiz, atashimiz va sanashimizning intonatsiyasini farqlaymiz. Nutqiy intonatsiya idrok qilinar ekan nutqning davrlarga,




davrlarning jumlalarga, jumlalarning sintagma deb ataladigan ma'noli bo'laklarga bo'linishini ko'ramiz.

Jadval №1

So'zlashuv nutqda intonatsiya(ohang)ning kommunikativ turlari


Intonatsiya



Jadval №2

So'zlashuv nutqda nutqiy intonatsiya turlari


Nutqiy intonatsiya



Xuddi shunday yo'llar bilan so'zlashuv nutkida ishlataladigan so'roq gap semantik turlari aniqlanadi.

Jadval №4

So'roq gap



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arnold I.V. Stilistika sovremennoego angliyskogo языка. L., 1981.
2. Aleksandrov O.V. «Problemy ekspressivnogo sintaksisa» M., 1984.
3. Rasulov I. Tanlangan asarlar, 1 jild, O'zbek tili stilistikasi. T., 2015.
4. Skrebnev K.M. Общелингвистические проблемы описания синтаксиса разговорной речи. M., 1971.
5. Davyd, Crystal D. Investigating English Style. London, 1969.

